Nemis vrachi alximik Andrey Libau (1540-1616y. oxiri), lotinlashgan Libaviya nomi bilan mashhur bu'lgan, 1597 yilda tarixdagi birinchi kimyo darsligi – “Alximiya” ni nashr qildi.

Libaviya birinchi bu'lib xlorid kislota, qu'rg'oshin tu'rt xlorid, ammoniy sulfat va “zar suvi” (podsho arog'i) – nitrat va xlorid kislotalarining aralashmasini tayyorlashni tariflab bergan. Libaviy eritmani bug'latish natijasida hosil bu'ladigan kristallarning shakliga qarab, mineral moddalarni aniqlash mumkin, deb hisoblar edi. Biroq u Paratselsning, alximiyaning asosiy masalasi – meditsinaga xizmat qilish, degan fikriga qu'shilgan bu'lsada, shunga qaramasdan u metallar oltinga aylanishi mumkinligiga qattiq ishonar edi va oltin olish usulining kashf etilishi kimyo fanining gulchambari bu'lib qoladi, deb hisoblar edi. Aniq va ravon tilda yozilgan u'zining asarlarida Libaviy, “paratselsga tegishli”, deb atagan, noaniq nazariyalarga shiddat bilan qarshi turar edi.

Kimyoning yangi yu'nalishida ku'proq tanilgan vakillaridan nemis kimyogari Iogann Glauber (1604-1668) edi. Ixtisosligi vrach bu'lgan bu odam, turli xildagi kimyoviy moddalarning olish usullarini taqqoslashtirish va qaytadan ishlab chiqish bilan shug'ullanar edi. Glauber osh tuziga sulfat kislota tasir ettirib, xlorid kislota olish usulini ishlab chiqdi. Kislotalarni haydagandan keyin qolgan qoldiqni (natriy sulfat) sinchiqlab u'rgangandan keyin Glauber, bu modda kuchli ich yumshatuvchi tasirga ega ekanligini aniqladi. U bu moddani “ajoyib tuz” (sal mirabile) deb atadi va uni panatsea, deyarli hayot eliksiri deb hisobladi. Glauberning zamondoshlari

bu moddani Glauber tuzi deb nomlashdi va bu nom hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Glauber bu va boshqa bir qator tuzlarni, uning fikricha, noyob dori vositasi bu'lgan tuzlarni tayyorlash bilan shug'ullana boshladi.

Meditsina va minerallar haqidagi rivojlanayotgan fanlar shunchalik daromatli va jalb qiluvchi bu'lib chiqdiki, oltin olish uchun cheksiz va omadsiz urinishlarga vaqt ketgazishga hech qanday hojat qolmadi.

3.7. U'TISH DAVRI

Italiyalik olim Galileo Galiley (1564-1642), XVI asrning 90 yillarida jismlarning tushishini u'rganib, fizikaviy tajribadan olingan ma'lumotni matematik jihatdan ishlab chiqqan va aniq u'lchashlarning muhim ekanligini birinchi bu'lib ku'rsatdi. U qilgan ishlarning natijalari, yuz yilcha vaqt u'tgandan keyin ham, ingliz olimi Isaak Nyuton (1642-1727) ni muhim ahamiyatga ega bu'lgan xulosalarga olib keldi. Uzining, 1687 yilda nashr qilingan "Matematikaning boshlanishi" «Principia mathematica» kitobida Nyuton, mexanikaning asosini qayta ishlab chiqishni yakunlagan, harakatning uchta qonunini yaratdi. Bu qonunlar asosida keyingi ikki yuz yil ichida klassik mexanika rivojlandi. SHu kitobning u'zida Nyuton, ikki asrdan ku'proq, planeta va yulduzlar sistemasining harakatini tushuntirib berish uchun xizmat qilgan va hozirgi kungacha klassik mexanika tasavvurlari doirasida tu'g'riligi (haqligi) bilan asoslangan tortishish qonunini yaratdi. Tortishish qonunini ishlab chiqishda Nyuton sonlar nazariyasi – u'zi ishlab chiqqan matematikaning yangi va kuchli sohasidan foydalandi.

Nyutonning davrida ilmiy revolyutsiya u'zining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. Kadimgi grek nazariyalarining obru'yi bilinarli darajada tebratilgan edi. G'arbiy Evropa olimlarining nazariyalari ulardan ancha ustun edi.

Kimyoda oddiy sifat tarifdan chuqur miqdoriy u'lchashga u'tish Nyuton kashfiyotlaridan 100 yil u'tgandan keyin amalga oshdi. Biroq shu narsa hayratga soladiki, klassik astranomiya va fizikaning poydevorini qurgan, gu'zalligi va

buyukligi ilmiy dunyoni lol qoldirgan, Nyuton alximiyaning tarafdori edi va metallning oltinga aylanish retseptini izlagan edi.

Ammo shunga qaramasdan, kimyogarlar bir qancha yutuqlarga erishishdi va Galiley davridayoq kimyoda yaqinlashib kelayotgan revolyutsiyaning kuchsiz belgilari kuzatila boshladi. Bu belgilar masalan, flamandiyalik vrach YAn Batist Van Gelmont (1579-1644)ning ishlarida mavjud edi. Van Gelmont miqdori oldindan u'lchangan tuproqda daraxt u'stirar edi va u tuproqqa sistematik ravishda suv quyardi va sistematik ravishda daraxtni aniq tortib ku'rar edi. Van Gelmont, daraxt xosil qiladigan tirik tu'qima manbaini topishga ishonar ekan, u u'lchashni ham kimyoda, ham biologiyada olib borgan, deb aytish mumkin.

Kimyogarlar ichida birinchi bu'lib Van Gelmont ayrim reaksiyalar jarayonida hosil bu'ladigan bug'larga etibor berdi va ularni u'rganishni boshladi. U bug'lar nimasi bilandir havoni eslatishini, ammo ku'p jihatlari bilan undan farq kilishini aniqladi. U, daraxt yonganda hosil bu'ladigan bug'lar, u'zini boshqacha tutsa ham havoga u'xshashini topdi.

Van Gelmont umrining oxiriga kelib, gazlarga va ayniqsa, quproq tarqalgan gaz – havoga bu'lgan qiziqishi tasodifan kuchaydi. 1643 yilda italiyalik fizik Evandjelista Torichelli, havo balandligi 28 dyuymga teng bu'lgan simob ustunini ushlab tura olishi mumkinligini ku'rsatdi. Barometr ana shunday kashf qilingan. Bu kashfiyotdan keyin gazlar sirli narsalar deb, kam hisoblanadigan bu'la boshladi. Aniqlanishicha, ularning suyuqliklar va qattiq moddalardan farqi kichik zichlikka egaligidadir.

Nemis fizigi Otto fon Gerike (1602-1686) atmosfera havosi ham og'irlikka ega ekanligini ishonch bilan ku'rsatdi. Gerike havo nasosini kashf qilgan edi. Bu nasos yordamida idish ichidagi havo su'rib olingandan keyin idish tashqarisidagi havoning bosimi idishning ichidagi havo bosimidan yuqoriroq bu'lib qolardi. 1654 yilda Gerikening buyurtmasiga ku'ra, misdan yasalgan ikkita yarim shardan iborat (yarimsharlar zich bu'lib birikishi uchun yarimsharlarning orasiga skipidardagi vosk eritmasi bilan bu'ktirilgan, teridan tayyorlangan uzukni joylashtirgan)

bu'lgan asbob tayyorlandi. Gerike bu yarimsharlarni birlashtirib turib, hosil bu'lgan shardan havoni su'rib oldi. Bu yarimsharlarni tashqaridagi havo shunchalik darajada bosib turar ediki, bor kuchi bilan bu yarim sharlarni har tomonga tortayotgan otlar tu'dasi ham ajrata olmas edi. Bu tajrib fan tarixiga «magdeburg yarim sharlari» tajribasi nomi bilan kirib qoldi.

Tajribalarni u'tkazish jarayonida Boyle, havoning hajmi bosimga teskari proporsional ekanligini aniqladi. Uzun U-simon nayga simobni quyib turib Boyle, ulangan kalta nayning oxiridagi havoning namunasini berkitib qu'ydi. Ochiq turgan uzun nayning uchidan simobni quyib turib, bosimni oshirish mumkin edi. Boyle ana shunday miqdordagi simobni nayga quyganidan keyin, yani bosim havoga nisbatan ikki barobar (simobning ikki martaga oshirilgan massasi) oshib borar edi, havoning hajmi esa xuddi shunday ikki barobar kamaydi. SHu vaqtning u'zida, agar bosim pasaysa, hajm ku'payar edi. Boyle kashf qilgan hajmning bosimga teskari bog'liqligi Boyle qonuni degan nomga ega bu'ldi. Bu qonun haqidagi birinchi habar 1662 yilda chop etildi.

Boyle, uning qonuni faqat doimiy temperaturada kuchga kirishiga etibor berib, aytmas edi. Balki u buni tushungan edi va bu u'z-u'zidan shunday bu'lishi kerak, deb hisoblagandir. Frantsuz fizigi Edm Mariott (1630-1684) bu qonunni Boyldan bexabar bu'lib, 1676 yilda kashf etdi va ahamiyat bilan takidladiki, hajmning bosimga bog'liqligi faqat doimiy temperaturada kuzatiladi, degan. Mana shu sababli Evropa kontinentida Boylening qonunini, Mariott qonuni deb atashadi.

Boylening qonuni, moddalar u'zgarishining sabablarini aniqlash uchun aniq u'lchashlar qullanilgan birinchi urinish edi. Boylening qonuni atomistlarning etiborini tortdi, ular qatoriga Boylening u'zi ham kirar edi. YUqorida aytilgan, antik davr olimlarining atomistik qarashlarini u'sha davrning ku'pgina evropalik olimlari ham maqullar edi. Frantsuz faylasufi Per Gassendi (1592-1655) ham u'ziga qattiq ishongan atomist edi. Uning tasiridan atomistik nazariyaning tarafdorlariga Boyle ham kirib qoldi.

Flogiston. Bunday bug' mashinasi 1689 yilda inglizlik tog' injeneri Tomas Severi (1650-1715 y. yaqin) tomonidan haqiqatdan ham yaratildi. Bu qurilmada bug' yuqori bosim ostida ishlatilar edi, bu esa u'sha davrda havfsiz deb hisoblanmas edi. Taxminan u'sha vaqtda (1705 yil) Severi bilan hamkorlikda ishlagan Tomas Nyukomen (1663-1729) ancha past bosimdagi bug' bilan ishlay oladigan bug' mashinasini yaratdi. Biroq Nyukomenning mashinasi universal emas edi, va uni amalda faqat suv suv ku'tarish uchun ishlatish mumkin edi. Mashinaning konstruktsiyasi universal bug' mashinasining yaratuvchisi deb hisoblanadigan shotlandiyalik mexanik Djeymis Uott (1736-1815) tomonidan ancha takomillashtirildi.

SHtal tasavvurlariga muvofiq, yonuvchi moddalar flogistonga boydir. Yonish jarayonida moddaning tarkibidagi flogiston ajralib chiqadi va yonish jarayoni tugagandan keyin qolgan narsaning tarkibida flogiston bu'lmaydi va shuning uchun ham yonishda davom eta olmaydi. SHtal, metallarning zanglashi yog'ochning yonishiga u'xshaydi, deb taqidlar edi. Uning fikricha, metallar flogistonga ega, zangning tarkibida esa flogiston bu'lmaydi. Zanglash jarayonini bunday tushunish, rudaning metallarga aylanishi jarayoni - kimyo sohasidagi birinchi nazariy kashfiyotning sababini tushuntirib berishga imkon yaratdi. SHtalning tushuntirishlari qu'yidagilardan iborat edi. Flogistonga kam bu'lgan ruda, flogistonga boy bu'lgan yog'och ku'mirida qizdiriladi. Bu vaqtda flogiston yog'och ku'mirdan rudaga u'tadi, natijada yog'och ku'miri flogistoni kam bu'lgan kulga aylanadi, flogistoni kam bu'lgan ruda esa flogistonga boy bu'lgan metallga aylanadi.

SHtalning flogiston nazariyasi birinchi vaqtlarda keskin tanqidga uchradi. Bu nazariyaga, ayniqsa gollandiyalik vrach German Burgave (1668-1738) qarshi chiqdi. U yonish hodisasi va zangning hosil bu'lishi bitta hodisa bu'lishi mumkin emas, deb hisoblar edi. Chunki yonish, olovning paydo bu'lishi bilan boradi, zanglash esa-olovsiz sodir bu'ladi. SHtalning u'zi bu farqni qu'yidagicha tushuntirdi: yog'ochga u'xshash narsalar yonganda, flogiston shunchalik tez uchib

ketadiki, atrofdagi olamni qizdirib ku'zga ku'rinadigan bu'lib qoladi. Zanglashda esa flogiston asta-sekin uchib ketadi, shuning uchun ham olov paydo bu'lmaydi.

SHtal nazariyasiga ku'ra, zanglash jarayonida metallning tarkibidan flogiston uchib ketar edi. SHunga qaramasdan 1490 yildayoq alximiklar tomonidan zanglagan metall zanglamagan metalldan ancha og'ir ekanligi aniqlandi. Nima uchun flogistonni yu'qotgan modda og'ir bu'lib qoladi? Balki, XVIII asrning ayrim kimyogarlari taqidlaganidek, flogiston manfiy og'irlikka egadir? Bunday bu'lsa, nima uchun yog'och yonganda og'irligi kamayadi? Balki flogistonning ikki xil-musbat va manfiy og'irlikka ega bu'lgan turi mavjuddir.

Gazlar. Karbonat angidrid gazi va azot. Modda massasining yonishi vaqtidagi u'zgarishi tushunarsiz edi. Aniqlanishicha, bu hodisa yonish vaqtida gazlarning paydo bu'lishi yoki yu'qolishi bilan bog'likdir. Garchi gazlarning mavjudligi juda qadimda aniqlangan bu'lsada va Van Gelmontgacha, bir asr oldin, gazlar haqidagi bilimlar asta-sekin tu'plana boshlangan bu'lsada, SHtal davrida kimyogarlari gazlarning mavjudligini hisobga olishib, aslida ularga umuman etibor berishmas edi. YOnish jarayonida modda massasini u'zgarishi sabablari haqida u'yulayotgan tadqiqotchilar, faqat qattiq moddalar va suyuqliklarni hisobga olishar edi. Malumki, kul yog'ochdan engil. CHunki yog'och yonganda bug' (gaz) ajralib chiqadi. Biroq bu qanday bug' ekanligini, kimyogarlardan birortasi ham tushuntirib bera olmas edi. Zanglagan metall zanglamagan metalldan og'irroqdir. Balki metall zanglamaganda havodan nimanidir qabul qilishi mumkindir? Bunga javob yu'q edi.

Bu va boshqa bir qator savollarga javob berish uchun kimyogarlari gazlarni muntazam ravishda u'rganishni boshlashlari kerak edi. Bu sohada muhim qadamni, XVIII asrning boshlarida angliyalik botanik va kimyogar Stiven Geyls (1677-1761) qu'ydi. U gazlarni suv ustida yig'adigan asbobni yaratdi. Bu asbob "pnevmatik vanna", yani siqiladigan havo yordamida ishlaydigan asbob deb ataladi. Kimyoviy reaksiya natijasida hosil bu'ladigan gazni Geyls, suvli vannaga teskari tu'ntarilgan idishga, trubkadan ajratib olar edi. Gaz pufakchalari idishning

yuqori qismiga ku'tarilib u erdagi suvni siqib chiqarar edi. SHu yu'l bilan Geyls reaksiya natijasida hosil bu'ladigan gazlarni yig'ar edi. Geyls u'zi yig'gan gazlarni identifikatsiya qilmadi va ularning hossalarni u'rganmadi. Biroq uning gazlarni yig'ishi uchun yasalgan asbobi pnevmatik kimyoning rivojlanishida muhim rol u'ynadi.

Boshqa bir muhim qadam shotlandiyalik kimyogar Djozef Blek (1728-1799) tomonidan amalga oshirildi. 1754 yilda tibbiyot magistri darajasini olish uchun qilgan dissertatsiyasi kimyoviy muammo bilan bog'langan bu'lib, kislotalarning "yumshoq" (karbonat) ishqorlariga tasir ettirish vaqtida ajralib chiqadigan gazlarning hossalarni bevosita bog'lik edi. (Blek davrida meditsina bilan kimyo qattiq bog'langan edi). Blekning aniqlashicha, ohakli mineral (kaltsiy karbonat) qizdirilganda gaz ajralib chiqishi bilan parchalanadi va ohak (kaltsiy oksidi)ni hosil qiladi. Ajralib chiqayotgan gazni qaytadan kaltsiy oksidi bilan biriktirib, yana kaltsiy karbonat olish mumkin edi.

Blekning kashfiyoti katta ahamiyatga ega edi. Buning sabablaridan biri: birinchidan, karbonat angidrid gazi, yog'och yonganda gaz xosil bu'lganidek minerallarni qizdirish vaqtida hosil bu'lar edi. Jonli va jonsiz tabiat u'rtasida vujudga kelishi mumkin bu'lgan u'zaro bog'liqlik ana shunday aniqlangan edi.

Blek bu muammoni u'rganib chiqishni shogirdlaridan biriga – shotlandiyalik kimyogar Daniel Rezerfordga (1749-1819) taklif qildi. Rezerford quyidagi tajribani u'tkazdi: u cheklangan miqdordagi havoda sichqonni, u u'lib qolmagunicha ushlab turadi. Keyin qolgan havoda yonib turgan shamni, u u'chib qolguncha ushlab turdi. SHularning hammasidan keyin qolgan havoda esa, u yonib turgan fosforni ushlab turdi, fosfor u erda kam vaqt yonib turdi. Keyin Rezerford bu tajribani 1772 yilda elon qildi. Rezerford ham, Blek ham flogiston nazariyasining qat'iy tarafdorlari bu'lganliklari uchun, bu tajribaning natijasini shu nazariyaning qarashlaridan kelib chiqqan holda izohlashdi. Toki sichqonlar nafas olib, sham va fosfor yonar ekan, flogiston ajralib chiqadi va havoda, hosil bu'layotgan karbonat angidrid bilan birga kiradi. Karbonat angidridi va chiqarib

yuborilgan havoda shunchalik ku'p flogiston bor ediki, u xuddi flogiston bilan "shimdirilgan" ga u'xshar edi. Bu havo flogistonni boshqa qabul qila olmas edi va shuning uchun ham na sham, na fosfor unda yonmas edi. SHunga ku'ra, Rezerford, u'zining ajratib olgan gazini "Flogistonlashgan havo" deb atadi. Bugungi kunda biz uni "azot" deb aytamiz.

Vodorod va kislород. Blek va Rezerford bilan bir vaqtda, gazlarni u'rganishda, boshqa ikkita angliyalik kimyogarlar – Kavendish va Pristli ham muvaffaqiyatlarga erishishdi. Ular ham flogiston nazariyasining tarafdorlari safiga kirar edilar.

Genri Kavendish (1731-1810) turli xil sohalarda tadqiqotlar olib borayotgan, qiziq tabiatli kishi bu'lgan. Tabiatdan kamgap bu'lgan bu odam, u'tkazgan ilmiy ishlarining natijalarini har doim ham nashr qilavermas edi.

Kavendishni (Dj. Blek tasirida bu'lsa kerak) ayniqsa, ayrim metallarga kislotalar tasir ettirganda hosil bu'ladigan gaz qiziqtirib qoldi. Ilk bor bu gaz Boyl va Geyls, shuningdek, boshqa tadqiqotchilar tomonidan ajratib olingan bu'lishi mumkin, biroq Kavendish birinchi bu'lib, 1766 yilda bu gazning hossalarni sistematik ravishda u'rganib chiqdi. SHuning uchun vodorod deb nomlangan gazning kashf etilishini, uning sharafiga yoziladi. Kavendish birinchi bu'lib, turli gazlarning malum hajmdagi massalarini aniqladi va natijada ulardan har birining zichligini topa oldi. U vodorod haddan tashqari engil ekanligini va uning zichligi havoning zichligiga nisbatan $\frac{1}{14}$ ni tashkil etishini kuzatdi. (Xozirgi kunda ham bizga malum bu'lgan gazlarning orasidagi eng engil gaz hisoblanadi). Aniqlanishicha, vodorod yana bir oddiy bu'lmagan hossaga ega. U karbonat angidrid va havodan farqli ravishda osongina alanganadi, unda Kavendish flogistonning u'zini ajratib olganlik ehtimoli borligiga ishonar edi.

Gazlarni u'rganishda muvaffaqiyatlarga erishgan ikkinchi kimyogar – Djozef Pristli (1733-1804) edi. U protestant mashabidagi ruhoniyy bu'lib, kimyo bilan juda mashg'ul bu'lgan. XVIII asrning 60-yillarining oxirida u Lidsada (Angliya) pastorlikni qabul qildi. Lidsaning yonida pivo zavodi joylashgan edi. U erdan

Pristli tajriba u'tkazish uchun etarli miqdorda karbonat angidrid olishi (karbonat angidrid pivo qilish uchun tayyorlangan atalning achishidan hosil bu'ladi) mumkin edi.

Taxminan 1735 yilda shved kimyogari Georg Brand (1594-1768) mis rudasini eslatadigan, havo rang mineralni u'rgana boshladi. Bunday u'xshashligiga qaramay, bu mineraldan oddiy ishlov berish natijasida mis olishga muvaffaq bu'la olmadi. Ruda qazuvchilar bu ruda er ruhlari "kobold"lar tomonidan sehrlangan deb, tahmin qilishar edi. 1742-1744 yilda Brand, bu havo rang mineralning tarkibida mis emas, balki kimyoviy hossalari bilan temirni eslatadigan tamomila boshqacha metall borligini ku'rsata oldi. Bu metall *kobalt* degan nomni oldi.

1751 yilda Aksel Fredrik Kronstedt (1722-1765) kobaltga juda u'xshagan bu'lgan yangi metall nikelni kashf qildi; 1774 yilda Iogann Gotlib Gan (1745-1818) marganetsni ajratib oldi. Peter YAkob Gelm (1746-1813) esa 1782 yilda molibdenni olishga muvaffaq bu'ldi.

Sheele uchta kuchli va zaharli gazni: vodorod xlorid, vodorod sulfid va vodorod tsianidni ajratib olib ularni u'rgandi. (Taxmin qilishlaricha, uning erta u'limi ximikatlar bilan asta-sekin zaharlanishi natijasida bu'lgan, chunki u u'zi ishlagan moddalarning tamini tatib ku'rishga odatlangan edi).

3.8. U'LCHASH G'ALABASI.

XVIII asrning oxiriga kelib, yagona nazariya doirasiga sistemalashtirish zarur bu'lgan katta tajribaviy malumotlar tu'plangan edi. Bunday nazariyaning yaratuvchisi frantsuz kimyogari Antuan-Loran Lavuaze (1743-1794) edi. Kimyo sohasidagi u'zining ilk faoliyati boshlanishidayoq u aniq u'lchashning qanchalik muhim ekanligini tushundi. Uning birinchi va katta ahamiyatga ega bu'lgan ishlaridan (1764) biri gips mineralining tarkibini u'rganishga bag'ishlangan edi. Bu mineralni qizdirayotib, Lavuaze uning tarkibidagi suvni bug'latib yubordi va shunday yu'l bilan olingan suvning miqdorini aniqladi. Lavuaze ham, Blek va

Kavendish kabi kimyoviy reaksiyalarni u'rganishda u'lchash usulini qu'llagan kimyogarlarning qatorida turadi. Biroq Lavuaze ancha sistemalashgan yondashuvga erishgan. Bu esa unga, nafaqat foydasiz, balki kimyoning rivojlanishiga halaqit berayotgan eski nazariyalarning beqarorligini isbotlashga yordam berdi.

Biroq, hatto 1770 yilda bir qator olimlar elementlarni aniqlashning eski usulidan foydalanishardi va transmutatsiya mavjud, deb hisoblashgan. Chunki, masalan, suvni uzoq vaqt qizdirish natijasida tuproqqa aylantirish mumkin, deb taqidlashar edi. Suvning tuproqqa aylana olishi haqidagi tahminlar tu'g'ri deb hisodlanardi (boshida hatto Lavuaze ham shunday hisoblardi), qizdirish natijasida shisha idishda qattiq chu'kma hosil bu'lar edi.

Lavuaze suvning tuproqqa aylanishi mumkinligini tajriba yu'li bilan tekshirishga urinib ku'rdi. SHu maqsadda u 101kun davomida suvni, suv bug'i kondensatlanib, qaytadan kolbaga tushadigan idishda qaynatdi, bunda tajriba jarayonida biror-bir miqdordagi modda yu'qolib ketishi mumkin emas edi. Va albatta, Lavuaze tajribaning aniqligi haqida esidan chiqarmas edi. U idishni ham, suvni ham qizdirishdan oldin va keyin u'lchardi.

YOnish hodisasi qanday hodisa ekanligi haqidagi savol XVIII asrning barcha kimyogarlarni qiziqtirardi, va Lavuaze ham bu bilan qiziqmasligi mumkin emas edi. XVIII asrning 60 yillarida u ku'chani yoritish usullarini yaxshilashga bag'ishlangan tadqiqotlari uchun oltin medalga sazovor bu'ldi. 1772 yilda Lavuaze boshqa kimyogarlarning bilan birgalashib, olmosga ega bu'ldi. U bu olmosni yopiq idishga joylashtirib, uni olmos yu'q bu'lib ketgunicha qizdirdi. Bunda karbonat anhidrid gazi hosil bu'ldi. SHunday qilib, olmos ugleroddan iborat va demak, u boshqa moddalarga nisbatan ku'mirga yaqinroq, deb aniq isbotlangan edi.

Uzining tajribalarini davom ettirayotib, Lavuaze qalay va qu'rg'oshin kabi metallarni yopiq idishda chegaralangan hajmdagi havoda qizdirdi. Oldiniga ikkala metallning yuzasida qurum qatlami hosil bu'lardi, biroq aniq bir paytda zanglash jarayoni tu'xtar edi. Flogiston nazariyasining tarafdorlari, havo metallning tarkibida mavjud bu'lgan flogistonni yutib yubordi deb, aytishlari mumkin edi.

Usha vaqtda qurum metall dan og'irroq ekanligi aniqlangan edi. Biroq Lavuaze idishni, ichidagi bor tarkibi (metall, qurum, havo va h.k.) bilan qizdirganidan keyin tortib ku'rganida, uning og'irligi qizdirishgacha bu'lgan og'irligiga teng bu'lib chiqdi.

U'tkazgan tajribalarining natijalarini mulohaza qilib Lavuaze, agar kimyoviy reaksiyada ishtirok etatgan barcha moddalar va barcha hosil bu'ladigan mahsulotlar hisobga olinsa, u holda og'irlikdagi u'zgarishlar hech qachon kuzatilmaydi, degan fikrga keldi. (Fiziklarning tili bilan aytganda, massasida u'zgarish sodir bu'lmaydi). Boshqacha qilib aytganda, Lavuaze massa hech qachon yaratilmaydi va yu'qotilmaydi, faqat bir moddadan ikkinchi moddaga u'tadi, degan xulosaga keldi. Bu bayonot, massaning saqlanish qonuni nomi bilan malum bu'lib, XIX asr kimyosining muhim kashfiyotlaridan hisoblanadi.

Lavuazening, miqdoriy u'lchash usulini qu'llashi natijasida erishgan yutuqlari shunchalik ulkan va ravshan ediki, bu usul barcha kimyogarlar tomonidan su'zsiz qabul qilingan edi.

YOnish. Biroq Lavuazening u'zi olingan natijalardan tu'liq qanoatlanmas edi. Xavo metall bilan birikkanda qurum hosil bu'lardi, yog'och bilan birikkanida esa - gaz hosil bu'lardi. Ammo nega bunday u'zaro tasirlanishda havoning hammasi emas, balki uning taxminan beshinchi qismi qatnashadi?

1774 yilning sentyabrida Parijga Pristli tashrif buyurdi va Lavuazega u'zining "deflogistonlashgan havo" sining kashf etilishini gapirib berdi. Lavuaze birdaniga bu kashfiyotning hamiyatini baholadi. 1775 yilda u Fanlar Akademiyasida maruza bilan chiqdi, tez orada esa, havo oddiy modda emas, balki ikkita gazning aralashmasidir, deb taqidlab yozgan maqolasini tayyorladi. Lavuazening fikriga ku'ra, havoning beshdan bir qismini Pristlining "deflogistonlashgan havo"si tashkil qilar ekan, va aynan havoning ana shu qismi yonayotgan yoki zanglayotgan narsalar bilan birikib, rudadan yog'och ku'mirga u'tadi va hayot uchun zarur bu'lib hisoblanadi.

Lavuaze bu gazni kislorod, yani kislotalarni tug'diruvchi deb nomladi, chunki kislorod – barcha kislotalarning zaruriy tarkibiy qismi deb hisoblardi. Bunda, keyinchalik aniqlanishicha, u hato qilgan ekan.

Xavoning beshdan tu'rtini tashkil etgan gaz (Rezerfordning “flogistonlangan havo”si), mutlaqo erkin modda deb, tan olindi. Bu gaz yonishga yordam bermas edi, sichqonlar esa unda u'lib qolardi. Lavuaze uni azot - hayotsiz deb atadi. Keyinchalik azot, nitrogen, yani lotinchadan tarjima qilinganda, selitra hosil qiluvchi, deb qayta nomlandi. Bunday nomlanishga sabab, aniqlanishicha, azot keng tarqalgan selitra mineralining tarkibiy qismini tashkil etishidadir.

Lavuaze, hayot yonish jarayoni kabi jarayon bilan boradi, deb aniq ishongan edi (va aytish kerakki, u mutlako haq edi), chunki biz kislorodga boy bu'lgan va karbonat angidridi kam bu'lgan havoni yutar ekanmiz, kislorodi kam bu'lgan va karbonat angidridga ancha boyitilgan havoni chiqaramiz. Lavuaze va uning kasbdoshi, keyinchalik mashxur astronom sifatida tanilgan Per Simon de Laplas (1749-1827) hayvonlar tomonidan yutiladigan kislorodning va chiqariladigan karbonat angidridning miqdorini u'lchashga urindilar. Natijalar u'ylantirishga majbur qiladigan bu'lib chiqdi, chunki yutilayotgan kislorodning bir qismi chiqarilayotgan karbonat angidridga aylanmagan edi.

SHunday qilib, kimyo fanining poydevorini qurgan Lavuaze endi uning ustqurmasi bilan shug'ullanishga qaror qildi. XVIII asrning 80 yillari davomida Lavuaze boshqa uchta frantsuz kimyogarlari – Lui Bernar Titon de Morvo (1737-1916), Klod Lui Bertolle (1748-1822) va Antuan Fransua de Furkrua (1755-1809) bilan hamkorlikda kimyoviy nomenklaturaning mantiqiy sistemasini ishlab chiqdi. Bu ish 1787 yilda nashr qilindi.

1789 yilda Lavuaze “Kimyoning elementar kursi” deb nomlangan kitobini nashr qildi. U bu kitobida yangi nazariyaga asoslangan holda va u'zi ishlab chiqqan nomenklaturadan foydalanib u'sha davrda kimyo sohasida mavjud bu'lgan bilimlarni tu'plab sistemaga soldi. Lavuaze 33 ta elementni keltirgan edi va shulardan faqat 2 tasida xatoga yu'l qu'yilgan edi. Bu “yorug'lik” va “teplorod”

(isiqlik)ga tegishli edi, chunki bir necha u'n yilliklar u'tgach, u material substantsiya emas, balki energiyaning shakllari ekanligi aniq bu'lib qoldi.

Atomlar. *Prust qonuni.* Lavuaze erishgan yutuqlar kimyogarlarga, miqdoriy u'lchashni qu'llash, kimyoviy reaksiyaning asl mohiyatini anglashga yordam berishini ku'rsatdi. Miqdoriy u'lchashlar usuli shu jumladan kislotalarni u'rganish uchun ham ishlatiladi. Kislotalar, bir qatar harakterli hossalarga ega bu'lgan moddalarning tabiiy gruppasini hosil qilgan. Kislotalar ximiyaviy jihatdan aktiv bu'lib, ruh, qu'rg'oshin, temir kabi metallar bilan reaksiyaga kirishganida vodorod ajratib chiqaradi. Kislotalar nordon tamga ega bu'lib, ayrim bu'yoqlarning rangini u'zgartiradi va h.

Kislotalarga asos deb ataluvchi moddalar guruhi qarama – qarshi turadi. (Kuchli asoslar ishqorlar deb ataladi). Bu moddalar achchiq tamli, kimyoviy jihatdan aktiv, bu'yoqlarning rangini u'zgartiradi va h. Kislota eritmasi asos eritmasini neytrallaydi. Boshqacha qilib aytganda, malum nisbatta olingan kislota va asos aralashmasi kislotalarning ham, asoslarning ham hossalarni namoyon qilmaydi. Bu aralashma kimyoviy jihatdan kislota yoki asosga nisbattan aktivligi kam bu'lgan eritmasini namoyon qiladi.

Neytrallanish reaksiyasi nemis kimyogari Ieremey Venyamin Rixter (1762-1807)ni qiziqtirib qoldi. Rixter, u yoki bu asosni neytrallash uchun kerak bu'lgan kislotalarning aniq miqdorini u'lchab ku'rdi. U'lchash natijalari shuni ku'rsatdiki, neytrallash reaksiyasini u'tkazishda oshpazning usulidan, yani oshpaz u'zining tabiga ku'ra u yoki bu narsaning miqdorini ku'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin, bu usuldan foydalanish mumkin emas; chunki bu holatda moddaning aniqlangan va doimiy miqdori zarur bu'ladi.

Rixter u'zining qarashlarini “Stexiometriya, yoki kimyoviy elementlarni u'lchash sanati” deb nomlagan 3 qismdan iborat, 1792-1794 yillarda chiqqan kitobida bayon etgan. Ku'pgina tuzlarning analizlari asosida Rixter neytrallash uchun zarur bu'lgan kislota va ishqorlarning nisbiy og'irlik miqdorini ku'rsatadigan neytrallanish qatorini tuzdi.

Bu erda, *ekvivalent* (biriktiruvchan) og'irlik – bitta kimyoviy moddaning boshqa modda, xuddi birinchi modda kabi doimiy (u'zgarmas) og'irlikka ega bu'lgan modda, bilan tasirlashadigan doimiy og'irligi haqida gap borar edi. SHunday qilib, ekvivalentlar qonunining tarifi Rixterga tegishlidir.

Tez orada I.Rixterning ishlari nashr qilinganidan keyin ikkita frantsuz kimyogari qizg'in bahsga kirishdi. Ular, bunday aniqlik faqat kislota-asosli neytrallanish uchun tegishlimi yoki umuman kimyoviy jarayonlarning hammasigami? deb bahslashdi. Umuman olganda savol qu'yidagicha qu'yilgan edi: agar qandaydir birikma ikkita (3ta yoki 4ta) elementdan iborat bu'lsa, bu ikkala elementning u'zaro nisbati doimo u'zgarmasmi? Bu nisbatlar, birikma hosil bu'lishi usuliga bog'lik bu'lgan holda u'zgara oladimi? Baxsga kirishgan kimyogarlardan biri yuqorida nomi keltirilgan, Lavuaze bilan birgalikda zamonaviy kimyoviy terminologiyani ishlab chiqqan K.L.Bertolle edi. Bertolle boshqa bir fikrga tayanardi va u x va u elementlardan iborat bu'lgan birikmaning x miqdori ku'proq bu'ladi, agar bu birikmani hosil qilishda x ning miqdori keragidan ortiqcha ishlatilsa, deb hisoblar edi.

Ispaniyada ishlagan frantsuz ximigi Jozef Lui Prust (1754-1826) qarama-qarshi bu'lgan fikrga tayanar edi. YAxshilab u'tkazgan analizlar yordamida 1789 yilda Prust masalan, mis karbonat; mis, uglerod va kislorodning, bu tuz qanday yu'l bilan laboratoriyada yoki qanday usul bilan tabiiy manbalardan ajratib olinganligiga bog'lik bu'lmagan holda malum og'irlik nisbati bilan xarakterlanganishini ku'rsatadi. Birikma doimo 5,3 qism Su , 4 qism O va 1 qism S iboratligini aniqladi.

Bundan tashqari, Prust komponentning u'zaro bog'likligi u'zgarmas ekanligini boshqa birikmalarda ham kuzatilishini aniqladi. U umumiy qoidani tuzdi va bu qoidaga binoan barcha birikmalar, bu birikmalar hosil bu'lish sharoitidan qat'iy nazar, malum proportsiyalardagi elementlardan tarkib topgan. Bu qoida tarkibning **doimiylik qonuni yoki Prust qonuni** deb ataladi.

XIX asrning birinchi yillarida Prustning haqligi aniq bu'ldi. Takibning doimiylik qonuniga aniqlik kiritilib, u kimyoning asosiy qonunlaridan biri bu'lib qoldi.

1803 yilda Dalton u'zining kuzatishlari natijalarini umumlashtirib, kimyoning eng muhim qonuni – **karrali nisbatlar qonunini** yaratdi. Bu qonun atomistik tasavvurlarga tu'liq javob beradi. Elementlar karrali nisbatlarda birikar ekan, demak hosil bu'ladigan birikma tarkibi jihatidan butun atomlarga farq qiladi. Albatta, tarkibdagi bunday farq va karrali nisbatlar qonuni, materiya haqiqatdan ham kichik bu'linmas atomlardan iborat bu'lgandagina haq bu'ladi.

1808 yilda u «Kimyoviy falsafaning yangi sistemasi» ishini nashr qildi. Bu asarda u atomistik nazariyani endi ancha batafsil bayon qilar edi. SHu yilning u'zida karrali nisbatlar qonuni xaqqoniy ekanligi boshqa bir ingliz kimyogari – Uilyam Gayd Uollaston (1766-1828) tadqiqodlari uchun har tomonlama urinib ku'rdi va Daltonning qarashlari malum bir vaqtda har tomonlama tan olindi.

1733 yilda frantsuz kimyogari SHarl Fransua de Sisterne Dyufe (1698-1739) ikki turdagi: biri shishada («shishali elektr»), - ikkinchisi esa qahraboda («smolali elektr») paydo bu'ladigan elektr zaryadlar mavjudligini aniqladi. Bir turdagi zaryadni tashuvchi modda boshqa turdagi zaryadni tashuvchi moddani tortadi, biroq ikala bir xil zaryadlangan moddalar u'zaro itarishishadi.

Amerikalik buyuk olim, atoqli davlat arbobi va diplomat Bendjamin Franklin (1706-1790) XVIII asrning 40-yillarida yangi gipotezani ilgari surdi. U tahmin qilishicha, umumiy (yahlit) elektr flyuidlar (spiritlar tasavvuricha: gu'yo odam yoki hayvonlar tanasidan chiqadigan yohud boshqa biror narsada nurlanadigan allaqanday «psixik toklar») mavjud va elektr zaryadining turi shu flyuidning tarkibida bu'lishiga bog'liqdir.

1800 yilda italiyalik fizik Alessandro Volta (1745-1827) muhim kashfiyot qildi. U ikkita metall bu'lagi (elektr tokini u'tkaza oladigan eritmalar bilan ajratilgan)ni shunday joylashtirish mumkinki, ularni birlashtiradigan simdan “elektr zaryadlar toki” , yoki elektr toki u'tadi. Volta birinchi elektr batareyasini

yasadi. Bu elektr batareya 2 ta har xil metallardan yasalgan 20 juft metall plastinkadan iborat ustunni yig'ardi. Bunday batareya, Volta ustuni nomi bilan tanilgan birinchi doimiy tok manbai bu'lib qoldi. Elektr toki bunday batareyada ikkita metall va ularni ajratadigan eritma orasida boradigan kimyoviy reaksiya natijasida hosil bu'lishini ku'rsatgan. Bu ishlar keyingi yuz yillikda tu'la ishlab chiqildi.

Avogadro gipotezasi. Nikolson va Karlayl olib borgan izlanishlarning natijalari frantsuz kimyogari Jozef Lui Gey-Lyussak (1778-1850) ishlari bilan yanada mustaxkamlandi. Gey-Lyussak 2 hajm vodorod 1 qism kislorod bilan birikib, suv hosil qilishini aniqladi. Keyinchalik u, gazlar birikma hosil qiladi, ularning hajmlarining nisbatlari doimo karrali sondagi nisbatlarni ifodalashini aniqladi. 1808 yilda Gey-Lyussak u'zi kashf qilgan **doimiy nisbatlar qonuni** haqidagi malumotni nashr qildi.

SHu qonunga muvofiq suv molekulasida 2 atom vodorod va 1 atom kisloroddan iborat ekanligiga tu'liq yu'l qu'yish mumkin. SHu qonundan foydalanib, ammiakda nechta azot atomi va vodorod atomi borligini aniqlash mumkin bu'lib qoldi. Ammiak molekulasida 1 atom azot va uchta vodorod atomi borligi aniqlangandan keyin, azotning atom massasi taxminan 5 emas, 14 ekanligi aniq bu'lib qoldi.

Endi vodorod va xlori ku'rib chiqamiz. Bu 2 ta gaz birikib, uchinchi gaz-vodorod xloridni hosil qiladi. Bunda 1 hajm vodorod va 1 hajm xlor bilan birikib, vodorod xlorid molekulasini hosil qilishigi tu'liq faraz qilishimiz mumkin. Endi faraz qilaylik, gazsimon vodorod va gazsimon xlor, bir-biridan uzoqroq turadigan toq atomlardan iborat va bu atomlar ham bir-biridan uzoqlashib turgan vodorod xlorid molekularini, juft-juft bu'lib birikib, hosil qiladi. 100 atom vodorod va 100 atom xlordan boshlaymiz. Mana shu bir-biridan uzoqlashib turgan 200 ta zarracha juftlashib birikadi va 100 molekula vodorod xloridni hosil qiladi. Natijada 200 ta bir-biridan uzoqlashib turgan zarralar (atomlardan) faqat 100 bir-biridan uzoqlashgan zarralar (molekulalar) qoladi. Agar ular orasidagi masofa hamma

joyda bir xil bu'lsa, u holda 1 hajm vodorod va 1 hajm xlorning yig'indisi (bor yu'g'i 2 hajm) faqat 1 hajm vodorod xloridni hosil qilishi mumkin. Biroq olingan malumotlar 1 hajm vodorod 1 hajm xlor bilan birikib 2 hajm vodorod xloridni hosil qilishini isbotlaydi. Tajriba u'tkazish uchun olingan 2 hajm gaz, tajriba tugagandan keyin ham u'sha 2 hajmligicha qolar ekan, u holda zarralar soni tajribadan oldin ham tajribadan keyin xam u'shandayligicha qoladi.

Faraz qilaylik, gazsimon vodorod aloxida atomlar ku'rinishida emas, balki har biri 2 atomdan iborat bu'lgan vodorod molekulasini ku'rinishida mavjud bu'ladi, gazsimon xlor esa ikki atomli xlor molekulasidan iboratdir. Bu holda 100 atom vodorod - bu bir-biridan uzoqlashib turgan 50 vodorod-vodorod zarrachalari, 100 atom xlor esa - bu 50 ta bir-biridan uzoqlashib turgan xlor-xlor zarrachalaridir, yani jami 100 ta zarracha. Vodorod xloridning hosil bu'lishida zarrachalarning qayta gruppalanishi sodir bu'ladi va vodorod-xlor atom kombinatsiyasi vujudga keladi. Bunda vodorodning 100 atomi va xlorning 100 atomi 100 molekula vodorod xlorid (molekulalarning har biri har bir turdagi atomdan va 50 ta xlor molekulasini 100 ta vodorod xlorid molekulasini hosil qiladi. Bunday xulosa kuzatish natijalari bilan mos keladi, yani ularning ku'rsatishicha, 1 hajm xlor 2 hajm vodorod xloridni hosil qiladi.

Bunga tu'liq yu'l qu'yish mumkin, agarda yuqorida aytilganidek, turli xil gazlarning zarrachalari, toq atomlardan iborat yoki atomlarning kombinatsiyasidan iborat bu'lishiga qaramasdan, bir-biridan bir xil masofada uzoqlashadi va agar ular orasidagi masofa anchaga farq qiladigan bu'lsa ham uzoqlashadi. Bu holatda gazning (berilgan temperaturada) zarrachalar soni gazning turiga bog'lik bu'lgan ravishda teng hajmni egallaydi.

Gazlarda zarrachalarning teng soni teng zarralarni egallashi haqidagi taxminlarning zarurligiga etibor bergan birinchi odam, italyan kimyogari Amedeo Avogadro (1776-1856) edi. SHuning uchun u 1811 yilda ilgari surgan taxmin Avogadro gipotezasi degan nomni oldi.

Agar bu gipotezani aniq eslasak, u holda vodorod molekulari (atomlar jufti) va atomlari orasida, shuningdek boshqa gazlarning molekulari va atomlari orasidagi farqni aniq keltirish mumkin. SHunga qaramasdan Avogadro vafotidan keyin, yarim asr davomida kimyogarlar bu gipotezaga amal qilishmadi va muhim gazsimon elementlarning molekulari va atomlari orasidagi farqga etibor berishmadi. Noaniqlik ancha muhim bu'lgan elementlarning atom massalarini aniqlashda ham kuzatildi.

Biroq atom massalarni tu'g'ri aniqlaydigan boshqa usullar ham malum edi. Masalan, 1818 yilda frantsuz kimyogari Per Lui Dyulong (1785-1838) va frantsuz fizigi Aleksis Tered Pti (1781-1820) shunday elementlardan birining atom massasini aniqlashdi.

Atom molekulyar nazariyasi. XIX asr u'rtalariga kelib noorganik va organik kimyo orasidagi farqni ajratish ancha murakkab bu'lib qoldi. YA Bertselius tomonidan oldinga surilgan dualistik modeli noorganik va organik birikmalarga tadbiq etish xato bu'lib chiqdi. 1840-1850 yillarda "atom", "molekula", "ekvivalent" tushunchalari haqida chalkashliklar paydo bu'lib qoldi. Tadqiqotchilar atom, molekula, ekvivalent terminlarini ishlatsalarda, bu tushunchalarga boshqacha mazmun berishar edi. Tadqiqotchilar bir xil moddani har-xil formulalar bilan ifodalashar edi. Masalan suvni formulasini qu'yidagicha ifodalashar edi: NO, N₂O, N₂O₂. Sirka kislotasini esa 19 xil formula bilan ifodalashar edi.

1840-1850 atom massasini aniqlashda ikkita yu'nalish bu'lgan. Birinchisi asosida fizik usullar, ikkinchisi - murakkab birikmalarni formulalarini va ularning molekulyar massalarini hisoblash.

1826 yilda J.Dyuma bir qancha tajribalar asosida anchagina birikmalarning molekulyar massasini aniqladi. Buning uchun u gaz yoki parlarni zichligini aniqlash usuli orqali bajardi. Bu bilan J.Dyuma Avogadro gipotezasini inkor qildi. YAni - bir xil hajmdagi murakkab va oddiy moddalar tarkibidagi molekular bir xil emas. Lekin, A.Avogadro dan keyin M.Goden, SH.Jerar, O.Loranlar birinchi

bu'lib oddiy va murakkab moddalarning teng hajmida, bir xil sharoitda molekulalar soni teng. SH.Jerarning muhim ishlaridan yana biri – tiplar nazariyasi. Bu tiplarga vodorod, suv, vodorod xloridi va ammiaklarni kiritish taklif etilgan.

1858 yili S.Kannitsaro molekulyar massani hisoblashda vodorodning ikkilangan zichligidan foydalanish kerakligini taklif etadi. Bundan ikki yil oldin bu usulni D.I.Mendeleev taklif qilib, $M/D=2$, bunda M- molekulyar massa, D-vodorod zichligi.

XIX asrning yana bir muhim yangiliklaridan biri – murakkab kimyoviy moddalarni ajratishda elektr tokidan foydalanishdir. Bu usul bilan G.Devi tomonidan yangi elementlardan K, Na, Ca, Sr, Ba va Mg ochildi.

3.9. KIMYO STRUKTURASI

1860 yillarda noorganik va organik moddalarning tarkibi, ularning empirik formulasini ifodalash va klassifikatsiyalash ustida juda ku'p urinishlar bu'ldi. Asosiy masala - moddalarning hossalari ularning tarkibiga va kimyoviy tuzilishiga bog'likligini topishga qaratiladi.

Bu vaqtgacha bu'lgan nazariyalar orqali bazi murakkab (tarkibida uglerod bu'lgan) moddalarning holatini tushuntirish qiyin edi. Bu muhim masalani – kimyoviy tuzilish A.M.Butlerovning (1861) nazariyasi uzil kesil hal qildi. Bu nazariyaga asosan:

a) organik molekulalarda atomlar bir biri bilan valentligiga asosan birikadi, bu molekulalarining kimyoviy tuzilishi belgilab beradi;

b) organik moddalarning kimyoviy va fizik-kimyoviy hossalari ularning tabiatiga, unga kiradigan atomlar tarkibiga, molekulalarining tuzilishiga hamda bog'lik;

v) har bir empirik formula uchun nazariy strukturasini (izomerlarini) chiqarish mumkin;

g) har bir organik modda u'zining kimyoviy formulasiga ega, bu formula shu moddaning hossalari haqida malumot beradi;

d) molekulalarda atomlar u'zaro bog'langan yoki bog'lanmagan bu'lishi mumkin. Bu kimyoviy tuzilish nazariyasi nafaqat reaksiyani ketishini tushuntirish, balki oldindan aytib berish imkoniyatini ham yaratdi. Bu nazariya kimyo fanining keyingi taraqqiyotiga yu'l ochib berdi.

Bu nazariya keyinchalik tu'yinmagan, aromatik va alitsiklik birikmalarning strukturasi aniqlashda ham qu'l keldi (Kekule, K.E. Erlenmeyer, V.V.Markovnikov, A.Bayer va boshqalar).

XIX asrning 60 yillarida kimyo fanida spektr analizining qu'llanilishi orqali Pb, Cs, In va Ta elementlari ochildi. Bu ilmiy tadqiqotlar D.I.Mendeleev tomonidan 1869 yili *elementlar davriy sistema qonunini* ochishga turtki bu'ldi.

XIX asrning 2-chi yarmida fizik-kimyo fani alohida kimyo fanining tarmog'i bu'lib ajralib chiqdi. Bu vaqtlarda jadallik bilan rivojlanayotgan elektrokimyo jarayonlari, termoximiya (M.Faradey, R.Klauzius, F.Kolraush, G.I.Gess, M.Bertlo, N.N.Beketov, K.Bertolle, L.Vilgelm, K.Guldberg, P.Vaage, Dj.Gibbs, M.Plank, Vant-Goff, V.Nernst va boshqalar) edi.

Kimyo tarixida A.Verner (1893) tariflagan koordinatsiya nazariya asoslari kimyo fanining yangi yu'nalishini yaratdi va rivojlanishini boshlab berdi.

XIX asrning oxiridagi eng katta yangilik bu V.Rentgen, 1895, tomonidan X-nurining ixtirosi bu'ldi. Bu sohada juda katta yangiliklar yaratildi (A.Bekerel, Dj.Tomson, E.Vixert, V Ramzay. E.Rezerford(1913), N.Bor, V Kossel, G.Lyuis va boshqalar). Yangi radioaktiv elementlar va ularning izotoplari (Po, Ra, Ac, Rn, Pa) ochildi.

3.10. O'ZBEKISTON KIMYO SANOATI

O'zbekiston kimyo sanoatida 22 ta ishlab chiqarish birlashmalari, zavodlar va qu'shma korxonalar kiradi. Xalq xu'jaligi tarmog'ida O'zbekiston kimyo sanoati eng yosh tarmoqlardan hisoblanadi. Ishlab chiqargan mahsulotlarga talab katta,

asosan mashinasozlik (plastmassa, shisha), tu'qimachilik sanoati (tola, bu'yoqlar), qishloq xu'jaligi (mineral ug'it, zaxarli ximikatlar), transport (motor yoqilg'isi, moylovchi moylar, sintetik kauchuk), qurilish (himoya plyonkalar, oyna, plastik) va boshqalar.

O'zbekiston kimyo sanoati tarkibida mineral ug'itlar ishlab chiqarish asosiy u'rinni egallaydi. SHu bilan birga qishloq xu'jalik zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan defoliantlar ancha miqdorda ishlab chiqariladi. Kimyo sanoati xom ashyosi uchun rangli metallurgiya, gaz va paxta tozalash sanoatlari chiqindilari xizmat qiladi. SHu bilan birga boshqa sanoat tarmoqlari chiqindilarini ham qayta ishlab, u tarmoqlarning rivojlanishiga ham hissa qu'shadi. SHu tariqa, kimyo sanoati tarmoqlararo bog'lovchi vazifasini ham bajarib keladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida O'zbekiston kimyo sanoti eng rivojlangan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Kimyo sanoati u'ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, bu tarmoq yangi materiallar yaratadi, ularning hossalari, sifat ku'rsatkichlari tabiiy materiallardan ustun turadi. Bu materiallardan foydalanishda odamlarning mehnati tejaladi va qishloq xu'jalik xom ashyolari tejaladi. Masalan kapron ipagini ishlab chiqarishda tabiiy ipak olishga qaraganda mehnat 20 barobar kam sarflanadi.

Ikkinchidan, kimyo sanoati juda katta xom ashyo bazasiga ega: xom ashyo sifatida har xil foydali qazilmalarni ishlatadi.

Kimyo sanoati u'z ichiga bir nechta tarmoqlarni oladi: 1) tog' kimyosi (mineral xom ashe qazib olish); 2) asosiy kimyo (kimyoviy tuzlar, kislotalar, mineral ug'itlar ishlab chiqarish); 3) organik sintez kimyosi (yarim mahsulot ishlab chiqarish); 4) polimerlar kimyosi (plastmassalar tayyorlash, kauchuk, xar xil tolalar); 5) polimer materiallarni qayta ishlash (shinalar, polietilen plenkalar ishlab chiqarish).

3.2. Mashkur kimyogarlarning ilmiy ishlarini urganish mavzusini uqitishda dastur.

Pedagogik tizim quyidagi tarkiblardan iborat:

1. Talim beruvchi - uqituvchi, ishlab chiqarish talimi ustasi.

2. Talim oluvchi - talaba, uquvchi, tinglovchi.

3. Talimiy maqsad – bu talim berishni biror narsaga intilishi.

4. Natija – (1) ushbu davr ichidan chiqishda talim oluvchini bilishi, uddalashi, qadrlashi zarur bulgan, talim berishni biror narsaga kelishidir;

(2) talim jarayonini samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi. Natija belgilangan maqsadga mos kelsa, quish urgatish jaryoni tugallangan hisoblanadi.


5. Uquv axboroti mazmuni – fan buyicha uqitish mazmunini tashkil etuvchi, adabiyot matnlari va uquv qullanmalar, lug'at va boshqa axborot manbalaridan iborat buladi. Uquv dasturi asosida aniqlanadi va maqsadni belgilashdan kelib chiqib talim beruvchi tomonidan uzgartirish kiritiladi.

6. Talim texnologiyasi – (1) uqitish- usul, shakl va vositalar; (2) muloqot, (3) axborot va (4) boshqaruvning *yul va vositalari*.

7. Tahliliy-natijaviy tarkib – talim texnologiyasi buyicha olingan natijalar samaradorligini ulchashning yul va vositalari.

Agar pedagogik tizimning tarkibiy tashkil etuvchilaridan bittasi ham bulmasa, unday holda talim jarayonining uzi ham bulmaydi, yoki u kuchsiz xususiyatga ega buladi. Har qanday holatda ijobiy natija bulsa ham, u tasodifiy bulishi mumkin.

Guruhlarni joylashtirishning eng maqbul chizmasi



Mavzularni o'qitishga oid didaktik o'yinlar va boshqa ko'rgazmali materiallarni tayyorlash masalalari.

Talim muassasalarida tayyorlanuvchi mutaxassislar manaviy xislatlari va umumkasbiy salohiyatidan tashqari, avvalo muayyan tanlangan sohaning chuqur bilimdoni bo'lishi ham lozimdir. Buni amalga oshirish uchun talabalar tafakkurini faollashtiruvchi va chuqurlashgiruvchi, shuningdek, ilmiy-o'quv axborotining uzatish jarayonini jadallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi faol talim texnologiyalari ishlab chiqilishi va amaliyotga keng ko'lamda joriy qilinishi lozim bo'lib qoldi. O'zbekiston yangi talim tizimiga o'tishi munosabati bilan bunday ishlanmalarga ehtiyoj yanada ortdi. Xususan, keyingi yillarda talim mazmunini va uning samaradorligini miqdoriy baxolash uslublarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi. Jumladan, bo'lg'usi mutaxassis salohiyatini meyorlovchi talim standartlari, o'quv rejalari va fan dasturlarini tuzishda, o'quv adabiyotlarini ilmiy-uslubiy saviyasini va xajmini baholashda, talaba mustaqil o'zlashtirishi uchun dasturiy o'quv materiallari ko'lamini belgalashda va nixoyat, talaba bilimining nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimi, ijodiy faoliyat natijalarini obektiv o'lchash mezonlariga ega bo'lish juda muhimdir.

O'qituvchi tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan usullardan foydalanib o'z darsida shunday shart-sharoit va imkoniyatlarni tarkib toptirishi lozimki, talabaga ilk bor neytral bo'lgan obekt kutilmaganda subektiv zaruriyat darajasiga ko'tarilsin.

Diqqatni jalb qilish uchun o'qituvchining intonatsiyasi muhim rol o'ynagani kabi multimediyalarda ovozdan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy bilimlar olishini taminlash uchun butun pedagogik jarayonning negizi hisoblangan o'qituvchi-pedagogning mehnati mazmunini hozirga davr talablari darajasida tashkil etish lozim. Mazkur jarayonning har bir qismi mayda-chuydasigacha yaxlit tasavvur qilingandagina, uning xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi, murakkabliklari, muammolarning echimlarini topish osonlashadi, nozik qirralari yoritiladi. Har bir harakat, usul, har

bir yumushning mukammal bajarilishi umumiy pedagogik jarayonning yanada sifati oshishiga olib keladi.

Pedagog mehnat faoliyati jarayonlari — aqliy (intellektual) moddiy mahsulot tayyorlash va shaxs fazilatlarini shakllantirish turli bilim, ko'nikmalarni hosil qilish kabi vazifalarni bajarish uchun maqsadli harakatlar, tasirlar majmuidir. Umuman inson mehnatining turlari aqliy-intellektual, jismoniy, qo'l mehnati, mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan va takroriy kabi xillarga bo'linadi.

O'qituvchilik mehnatida, masalan, so'nggi ikkala turini tashkil etish aycha murakkabdir. Malumki, respublikamiz mustaqillikka erishgach, talim-tarbiya jarayoniga ham turli xil axborot, pedagogik texnologiyalar kirib keldi, multimediya, automonitoring xizmati tashkil etildi. Ammo bu qulayliklarning yaratilishi, bizning fikrimizcha, o'qituvchi, pedagog-tarbiyachi mehnatini mexanizatsiyalashtirish yoki avtomatlashtirish degan fikrga to'g'ridan-to'g'ri javob bo'la olmaydi.

Kimyo darslarini didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni muloqotga kirishish ko'nikma va malakasini shakllantirib, o'zaro yordam berish odatlarini rivojlantiradi hamda o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Kimyo talimida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirib, qiziqarli psixologik muhitni yuzaga keltiradi.

YUqoridagi fikrlar asosida kimyo darslarini har doim ananaviy tarzda emas, bazan noananaviy tarzda tashkil etish yaxshi natija beradi. Masalan, dars boshlanishida o'quvchilarga kartochka-topshiriq va shu topshiriqqa oid model (krossvord yoki skanvord, rebuslar tuzish ham mumkin) tarqatib chiqiladi. Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan o'quvchilar baholar orqali rag'batlantirilishi elon qilinadi. Birinchi marta bu usulni qo'llaganda iloji boricha sodda va qiziqarli tayyorlash muhim. Chunki o'quvchi tez bajarib yaxshi baho olsa, keyingi darsda yana shunday baho olishga intilib harakat qiladi. Keyingi darslarda topshiriqlar mazmuni o'tilgan mavzularga mos holda murakkablashib boradi va

shu tariqa o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanib, olgan bilimlari mustahkamlanib boradi.

Kimyoga oid qiziqarli masalalarga krossvord, rebus va ijobiy izlanishga undaydigan masalalarni kiritish mumkin. Bunda o'quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so'z boyligini oshirish va tez fikrlashga o'rgatadi. Kimyoga oid rebusni tuzishga turmushda uchraydigan va o'quvchilarga malum bo'lgan obektlar, shakllar yoki tasvirlarni tanlash maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o'yinlardan unumli foydalanib faol o'quv-biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o'quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

O'quv jarayonida didaktik o'yinlar o'qituvchilarning oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib:

1. YAngi mavzuni tushuntirishdan oldin (bunda o'yin muammoli vaziyat sifatida)
2. YAngi mavzuni tushuntirish vaqtida (o'quvchilarning diqqatini jalb etish maqsadida)
3. Mavzuni mustahkamlashdan oldin, shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini tekshirish vaqtida (o'quvchilarni o'ziga xos o'yinga jalb etib, kichik guruhlar hosil qilish va raqobatni yuzaga keltirish) qo'llash mumkin.

YUqoridagi fikrlar asosida kimyodan didaktik o'yinlar ishlab chiqish va imkon qadar kompyuter o'yinlari tarzida yaratib, dars jarayonida foydalanish o'quvchilarning qiziqishi orttiradi.

Kimyodan yaratilgan o'yin dasturlari o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Talimiy maqsad – o'yin davomida o'quvchi mavzunining mohiyatini to'liq tushunib oladi.

Tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarda kuzatuvchanlik, ziyraklik, ogohlik,

topqirlik va estetik did kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Rivojlantiruvchi maqsad – o'quvchining fazoviy tasavvur qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Tanlangan mavzu bo'yicha o'quvchini o'ylashga va fikr yuritishga majbur qiladigan, eng asosiysi, o'yinni o'ynashga ehtiyoj sezdiradigan qiziqarli dizayn va g'oya yaratiladi.
2. O'yinning tuzilishi va o'ynash bosqichlari ishlab chiqiladi.
3. O'yin metodi asosida o'quvchining tanlangan mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarining shakllanishini taminlovchi pedagogik talablar aniqlanadi.
4. O'quvchining boshlang'ich bilimini va o'zlashtirishini nazorat qiluvchi masalalar tizimi ishlab chiqiladi.
5. O'yin metodining samaradorligini aniqlovchi nazorat va kompleks topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi.[17]

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirishga va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual(aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.[61]

Oldingi asrning 60-yillari boshidan AQSHda, so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yini qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yini tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli talim metodlaridan iborat deb takidladilar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi - aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb ham asosladi.

XULOSA

Insoniyat eramizdan oldingi ming yilliklarda ham u'z turmushini yaxshilashga harakat kilib kelgan. Oziq-ovqatini osonroq yu'llar bilan topish uchun qurol yaroqlar, u'simliklarni orasidan keraklilarini madaniylashtirish, u'zini u'rab turgan atrof muhitni u'rganish, tabiatdagi u'zgarishlarning sabablarini u'rganish kabi izlanishlar qilib kelgan.

Meloddan keyingi davrlarda bu ishlar yanada kengaydi. Er, suv, havo, koinotni u'rganish boshlandi. Har xil tajribalar u'tkazib, qonuniyatlarni u'rganishga uringanlar. Imkon qadar, u yoki bu u'zgarish sabablarini tushuntirish uchun qonuniyat yaratishga harakat qilganlar. Asta-sekinlik bilan tabiadagi u'zgarishlarni u'rganishga yangi-yangi usullar u'ylab topib, avvalgi qilingan tadqiqotlarga aniqlik kiritishganlar.

Kimyoviy u'zgarishlarni u'rganishda revolyutsion u'zgarishlarni 19 asrdan boshlangan deb hisoblash mumkin. 20 asrda esa misli ku'rilmagan kimyoda u'zgarishlar sodir bu'lgan. Kimiyo fanini u'rganishda ularni tarmoqlarga bu'lib u'rganiladigan bu'ldi.

Bu sohada ulug' ishlarni bajargan olimlar juda ku'p bu'lgan. Ularning nomi bilan qonunlar nomlangan, ilmiy unvonlar va eng yirik mukofotlardan Nobel mukofoti laureatlari etilib chiqqan.

Hozirgi vaqtda, O'zbekistonda ham kimyo fani va sanoati misli ku'rilmagan darajada rivojlandi. Fanlar akademiyasi, bir nechta Oliy U'quv YUrtlari maskanlari va Ilmiy tekshirish instiutlari tashkil etilgan. Yirik olimlar etishib chiqdi. Minglab injener-texnik xodimlar, kimyo sanoatini boshqarib bormoqda. Olimlar hamon izlanishlar bilan band. Bosh maqsad - turmushni yanada yaxshilashga qaratilgan.

Umumiy talim maktablarida kimyoviy fanidan «*Mashkur kimyogarlarning ilmiy ishlarini urganish mavzusini uqitish*» mavzularini interfaol usulida uqitish buyicha kupchilik metodik adabiyotlar kurib chiqildi va shu adabiyotlar asosida shu malakaviy bitiruv ishi ezildi.

Ish asosida kuyidagi xulosalarga keldik:

- kimyo tarixi fanini u'rganishda asosiy tushunchalarning kelib chiqishi, shuning ichida mashhur kimyogarlarning ishlari mavzularini uqitish, uni uquvchilarning kimyo tarixini urganish uquvchilarda gaz, metal va boshqa sistemalarning tushunchani ongli uzlashtirishga, ularni qullana bilishga, moddalarning asosini tushunishga olib keladi.

SHu bilan birga maktabni kimyo darsini uqitishga bir kancha kamchiliklar bor:

Ulardan: 1) maktablarda kimyo laboratoriyalari yaxshi ishlamaydi, yuqning qoshida; 2) metodika kullanmalar yuk eki etishmaydi kursatma qurollari yuq; 3) kimyo fanini uqitishda texnikaviy qurollardan foydalanish uchun maktablarda xolat yuq.

Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darslarning ko'rgazmaligini taminlash axborot texnologiyalardan foydalanish muammolarini hal etishni uslubiy jihatlari hal etildi.

Men institutni bitirgandan sung maktabdagi xolatlarni yaxshilashga uz xissamni kushaman.

Hayot faoliyati havfsizligi

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Ken'gashining` 19.07.2011 y. №208 sonli «Xalqning` er silkinishlar oqibatida yuzaga keladigan favqulodta vaziyatlarda (ta`biy va texnogen tu`rdagi) ha`rakat etishda tayarlash kompleks da`stu`rin tasdiqlash haqida»g`i qarori, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining` 22.07.2011 y. №310 sonli buyrug`in boshilikga olinib va o`rinlash maqsadida A`jiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti rektorati buyrug`i (25.12.2012 y. №601 D/1) asosida «Hayot qavfsisligi» fa`ni barcha ta`lim yonalishi buyicha talabalarga oquv jarayonida urgatish uchun, magistrlik dissertatsiya ishi va bakalavr mutaxassislik bitiruv ishlarin o`rinlashda fannin` huquqiy asoslari kiritildi.

4) binoan «Hayot faoliyati havsizligi» fanini barcha ta`lim yo`nalishlari bo`yicha talabalarga o`quv jarayonida o`rgatish uchun, svgistr dissertatsiyasini va bakalavr malakaviy bitiruv ishini bajarishda fanning huquqiy asoslari kiritildi.

“Jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erinliklarini ximoya qilish ta`minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo`ladi. Har bir kishi o`z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o`z huquqi va erkinliklarini ximoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur” (I. Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda, 31 – bet).

XX asrning 60 – yillaridan boshlab faoliyat ko`rsatib kelgan fuqaro mudofaasi tizimining asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg`in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida xalq xo`jaligi ob`ektlarining barqaror ishlashini ta`minlash hamda halokat o`choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o`z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

Lekin aholi hayotiga faqatgina ommaviy qirg`in qurollari emas, balki boshqa xavf – xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo

mumkin emas. Bular turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardir.

90 – yillarga kelib yadro urushi xavfi kamaydi, biologik qurollardan foydalanish cheklab qo'yildi, yangi – yangi zamonaviy qurol turlari kashf qilindiki, ular odamlar uchun xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarini ishdan chiqarishga qaratilgan edi. Bular hammasi fuqaro mudofaasi tizimi o'rnida yangi bir tizim tashkil etilishi lozimligini isbotlab berdi.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bosishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egallishi, u tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishi lozim edi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni: tabiiy ofatlardan xavfli hududlar xaritalarini tuzish, seysmik mustahkam bino va inshootlarni qurish, qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi va aholi tayyorligini amalga oshirishi lozim edi.

Shu o'rinda yana bir masalani oydinlashtirib olishga to'g'ri keladi. Favqulodda vaziyatning o'zi nima, undan aholi va hududlarni muhofaza qilish deganda nimani ko'zda tutishimiz lozim?

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y – harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y

bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar tasirini tugatishga qaratilgan avariya – qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan dadil qadamlardan biri – avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF – 1378 Farmoni** bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi.

Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonuni va qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 5 bo'lim va 27 moddadan iborat. Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muhofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may) – 4 ta bo'lim va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari

va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda. Qonunda OITS/OIV kasalligining oldini olish sohasidagi davlat ta'minoti, kasallikning oldini olish bo'yicha faoliyatni moliyalash, fuqarolarning huquq va majburiyatlariga doir masalalar yoritilgan.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust) – 15 modda. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 28 modda. Ushbu qonunning maqsadi qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilishni ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish vositalarining inson sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirining oldini olish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo'lim va 28 moddadan iborat. Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol – mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr) – 6 bo'lim va 31 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonuning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda. Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekstan Respublikasi MK (1997 jil 27 dekabr`) №558-sonli qarori «O'zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishda davlat tizimi haqida»g`i qarori bilan bekor etilib bu qaror qaytadan 2011 yil 24 avgustda O'zbekstan Respublikasi MK №242-sonli «O'zbekstan Respublikasida favqulodda vaziyatlarnin` oldini olish va ularda harakat etishning davlat tizimi ishlarin yanada yuksaldirish» haqidagi qarori bilan to'ltirilib qayta ishlandi.

O'zbekstan Respublikasi (2011 jil 19 iyul`) №208-sonli qarori «Xalqni er silkinishlar oqibatida yuzaga kelish mu`mkun bulgan favqulodda vaziyatlarda (ta`biy va texnogen) harakat etishga u`rgatishning kompleks da`stu`rin tasdiyqlash» haqida qarori asosida barcha joylarda favqulodda vaziyatlarda ha`rakat etishnin` kompleks da`sturlari ishlab shig`ildi, oquv mashqulatlari alib borilmaqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PQ – 585 – sonli). Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning ehtimol tutilgan oqibatlarini tezkorlik bilan tugatish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil yy aprel, 143 – sonli). Qarorga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida»gi

Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida (1997 yil 23 dekabr, 558 – sonli). Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT) to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funktsiyalari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida (1998 yil 7 oktyabr 427 – sonli). Qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomilashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga ilova tarzida keltirilgan «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455 – sonli). Qaror bilan tasdiqlangan tasnifga muvofiq favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra texnogen, tabiiy va ekologik xususiyatli, Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transschegarali turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32 – sonli). Odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora – tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15 – sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71 – sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy xujjatlar asosida o'quv jaraenida talabalarga “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha keng manoda tushunchalar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. «Uzbekistonda demokratik uzgarishlarni yanada chukurlashtirish va insonlarning jamiyatning asoslarini takomillashtirishning asosiy yunalishlari haqida» Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chakirik IX- sessiyasida 2002-yil 29-avgustda ishlangan bayonot.
2. «Таълим тугрисида конун» ва «Кадрлар таёрлашнинг миллий дастури тугрисида» Узбекистон Республикаси Конуни. Т. «Шарк», 1997.
3. М. Джуа. История химии. –Москва: Мир.,1975.
4. Азимов А. Краткая история химии. Перевод с англ. – М.: Мир, 1983
5. Соловьев Ю.И. История химии. М. «Просвещение. 1983.
6. Фигуровский М Н. Очерк общей истории химии. –Москва: Наука.,1978
7. Умаров Б.Б. Кимё тарихи фанидан маъруза матнлари. –Бухоро: 2003.
8. Быков Г.В. История органической химии. –Москва: Наука. 1981.
9. Хайнис У. Биография великих химиков. –Москва: Мир.1981.
10. Штрубе В. Пути развития химии. –Москва: Мир.1984.
11. Olimxo'jaeva N.T., Akbarxo'jaeva X.N. Bioorganik va fizkolloid kimyo.- Т.:»O'zbekiston», 2007.-288 bet.
12. Дуц В.М. Материалы общего производства: Учебное пособие для техникумов. – М.: Лесн.пром, 1990. – 144 с.
13. K.J.Mirsaidov. Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish talimi. 2001. Т. 45
b
14. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, "Fan", 2000 y.

15. Цехнович Л.И. Лекционное изложение технических наук. Киев: Выша школа. Головное издательство, 1981, - 142 с.
16. Olimov Q.T., Uzoqova L.P., Halimov E.Z., Rustamov R.M., Ashurova Sh.Y. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari ushin metodik qo'llanma. Toshkent-2004. O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti. 120 bet.
17. Хасанбоева О. Тарбиявий ишларни ташкил қилиш методикаси. -Т., 1996.
18. Педагогика. проф. А.Мунавваров тахрири остида, ўқув қўлланма. –Т: “Ўқитувчи”, 1996.
19. Ўзбек педагогикаси антологияси. 2 жилдли. К.Ҳошимов, Сафо Очил -Т. : Ўқитувчи, 1999.
20. Маҳкамов У.И. Таълим олувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. -Т.: ФАН, 1995.
21. V.V.Yudin. Pedagogicheskaya texnologiya. Yaroslavl`. 1997. S.103.
22. U.Tolipov, M.Usmonboev. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliy. Toshkent. Fan. 2005y.
23. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Fan”, 2000 y.
24. Xolmamatova L. Kimyo darslarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. Xalq talimi 2007-yil, №5-81-83b.
25. <http://www.chemistry.ru>
26. <http://www.chem-society.org>
27. <http://www.org-chem.ru>
28. <http://www.science.chemistry.com>
29. <http://www.publish.org-chem.com>
30. www.mateials-science.org